

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAC NYUTON
(1643-1727)



2022

APREL

№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
12-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-12**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-12**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

1. Bositxon Yusupov

TARIXIY ASARLARDA XARAKTER USTIDA ISHLASHNING O‘ZIGA XOSLIGI..... 7



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

TARIXIY ASARLARDA XARAKTER USTIDA ISHLASHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Bositxon Yusupov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sahnaviy xarakter yaratishda tarixiy asarlar ustida ishlash, tarixiy shaxslar obrazini yaratishda xarakterning badiiy ahamiyati yoritilgan. Amir Temur, Cho‘lpon obrazlarini yaratish, ularning xarakteri ustida ishlash jarayoni tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: teatr, sahna, xarakter, xarakterlilik, tarixiy shaxs, aktyor, rejissor, spektakl, obraz, dramaturg, janr.

Xarakter yaratishda tarixiy asarlar ustida ishlash o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, tarixiy shaxsning badiiy qiyofasi, uning xarakterini yaratish zamondosh qiyofasini yaratishdan ancha mas’uliyatdir.

Buyuk siymolarimiz xotirasiga bag‘ishlab mamlakatimizning bir qancha teatr jamoalarida sahna asarlari yaratildi, ularning o‘ziga xos badiiy qiyofalarini sahnada jonlantirish uchun astoydil harakatlar boshlandi. Misol sifatida buyuk Amir Temur sahnaviy obrazini yaratishdagi urinishlarni va izlanishlarni olishimiz mumkin.

Butun dunyo jahon shohi, buyuk sarkarda, davlat arbobi va donishmand deya tan olgan Temur obrazini yaratishda G‘arbu Sharq adabiyoti va san’ati vakillari katta qiziqish bildirishgan. Negaki, Amir Temurdek shaxsning qiyofasini yaratish sharaf hisoblanadi. Shu sababli, barcha san’at ahli badiiy haqiqat mezonlarining kesishgan nuqtalarini topa olishga, zamon va makonning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘g‘ri anglagan holda, Sohibqironning nafaqat buyuk davlat arbobi, adolatli shoh qiyofasida, balki undagi asl insoniy fazilatlarini va kechinmalarini to‘la namoyon qiluvchi ta’sirchan ifoda vositalarini qidirishga va o‘z asarlarida aks ettirishga uringanlar. Izlanish jarayoni naqadar murakkab va mashhaqqatli bo‘lishiga qaramay, ijod ahli bu yo‘ldan qaytmadi. Natijada, shu kunga qadar bir nechta Amir Temur siymosi bilan bog‘liq bir qator spektakllar sahnalashtirildi, bir butun turkum yuzaga keldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu o‘z navbatida izlanishlar ijobiy natija berganidan dalolatdir.

Shu kungacha yaratilgan asarlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, asosan Amir Temur shaxsiyatining bir qirradi, ya’ni adolatli shoh, davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida namoyon bo‘lganiga amin bo‘lamiz, biroq Abdulla Oripov yaratgan “Sohibqiron” asari O‘zbek Milliy akademik drama teatri sahnasiga ko‘chganida rejissor Olimjon Salimov pesani falsafiy – romantik drama uslubida talqin qilar ekan, spektaklni ichki dramatism bilan boyitib, qahramonlar xarakteri va holatlarini psixologik tahlil yordamida yorqinroq namoyon etishga intildi. Rejissor ko‘proq bosh qahramonning ma’naviy-ruhiy qiyofasini ochishga, yagona va kuchli davlat qurish yo‘lidagi insonning murakkab qismatini, uning bu yo‘ldagi iztiroblarini ko‘rsatishga harakat qildi [4, 26].

Spektakldagi ko‘rinishlarning barchasi Amir Temurning murakkab xarakterini turli qirralarini ochishga bo‘ysundirilgani bois u spektaklda mohir sarkarda, mehribon shu bilan bir qatorda qattiqqo‘l ota, suyukli yor, buyuk muhabbat egasi qiyofasida gavdalangan.

Xuddi mana shu asarni Mullato‘ychi Toshmuhammedov nomli Qashqadaryo viloyati musiqali drama va komediya teatri tantanavor qasida sifatida sahnalashtiradi. Unda ommaviy sahnalarga alohida e’tibor qaratilib, Amir Temurning sarkardalik mahorati namoyish qilinadi. Shu maqsadda, Sohibqiron sahnaga tulpor mingan holda kirib keladi. Jang ko‘rinishlari, nabiralarining to‘ylarini nishonlash, xorijiy mamlakatlar elchilarini qabul qilish sahnalari qunt bilan ishlangan. Spektakl finalida Sohibqironning yulduzlar orasidan o‘rin olishi sahnalari ham qiziqarli chiqqan.

Mannon Uyg‘ur nomidagi Surxondaryo teatrida sahnalashtirilgan Qilich Abunabiyevning “Amir Temur va Yildirim Boyazid” va Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg‘ona musiqali drama va komediya teatri jamoasi taqdim qilgan To‘ra Mirzoning “Amir Temur va To‘xtamishxon”



dramalarini Sohibqironning sarkardalik faoliyatiga asosiy e'tibor qaratilgan [4, 28].

Jizzax viloyati Yunus Rajabiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri sahnalashtirgan yozuvchi Odil Yoqubov qalamiga mansub “Avlodlarga vasiyat” spektaklida tanlangan mavzuning o'ziga xosligi diqqatni tortadi. Dramada Amir Temurning sevimli yori Suluvko'zga bo'lgan qalb kechinmalari, jahongirning so'nggi kunlari, o'ziga valiahd tayinlashi, Temuriyzodalar o'rtasidagi toju taxt uchun boshlangan kurash haqida hikoya qilinadi, ya'ni Amir Temurning oddiy inson sifatida kechinmalarini ko'rsatish birinchi o'ringa qo'yilgan. Bunda dramaturg xalq orasida keng tarqalgan Bibixonim va me'mor yigit haqidagi afsonaga tayangan. Bibixonim dramada Suluvko'z deb berilgan [4, 30].

Spektakl ijodkorlari Amir Temurnining ichki kechinmalari, kuchli tabiati, insoniy xususiyatlarini bo'rttirib ko'rsatishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan.

Birgina Amir Temur siymosini tiklash uchun qanchalar izlanishlar olib borilganidan sahnalashtirilgan asarlar darak berib turibdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu umummilliy timsol hali-hanuz o'z aksini to'laligicha namoyon qilmagan. Shunday ekan, yanada chuqur izlanishlar olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, bunga ijobiy hol deb qaramoq lozim.

Bundan anglashiladiki, dramaturglar va teatrlar uchun muayyan tarixiy shaxs haqida asar yaratish, eng avvalo, o'zaro ijodiy musobaqa, o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda, tarixni tiklash, o'zlikni anglash, ajdodlarga murojaat yuksalish, rivojlanish hamda jahon miqyosida alohida o'rin egallashga yo'l ochib beradigan vositalar hisoblanadi. Negaki, buning uchun barcha sharoitlar yaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek adabiyoti, san'ati va siyosiy tarixi zarvaraqlarida jadidlar alohida o'rin egallaydi. Negaki, aynan jadidlar harakati tufayli millatimiz o'z boshidan yangi bir sivilizatsiya bosqichini kechiradi. Ma'rifat, ilm – fan, san'atga alohida e'tibor qaratiladi. Yangi shakldagi maktablar joriy etiladi. Bularning barchasi, millat orasida rivojlanishga, salohiyatni yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zligimizni anglash, ajdodlarimizni xotirlash oliy maqsad hisoblanadi. Shunday ekan, tarixni o'ngga chiqarish ham asosiy vazifadir. Misol tariqasida Usmon Azimning “Kunduzsiz kechalar” asari markazida o'zbek adabiyotining zabardast vakili: shoir, yozuvchi, dramaturg va tarjimon Cho'lponning taqdiri tasvirlangan spektaklni olishimiz mumkin.

Sahna asarini sahnalashtiruvchi rejissor – Valijon Umarov. Asar hayotiy voqealar, tarjimai hol ma'lumotlari va hujjatlar asosida uzoq izlashnilar natijasida dunyoga kelgan, shu bilan bir qatorda adibning she'rlari bilan yanada boyitilgan. Spektakl umumiy holda Cho'lponning halokatini tasvirlaydi. Spektakl davomida foydalanilgan she'rlardan namunalar esa o'z navbatida ijodkorning iztiroblarini, kechinmalarini tasvirlabgina qolmay, shoirning tashvishlarini, shubha-gumonlariga to'la ma'naviy hayotini ham to'laqonli ochib bera olgan [4, 32].

Bosh rol ijrochisi bo'lmish Muhammadali Abduqunduzov o'zi gavdalantirayotgan qahramonining u yashagan davr ruhiyatini anglashga, aslida Cho'lpon shaxsi kim bo'lganini tushunishga uringani, uning asl insoniy fazilatlarini, shaxsiyatini to'la-to'kis o'ziga singdirishga qilgan harakatini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta obrazning haqqoniyligini ta'minlamay qolmagan.

Cho'lpon ilk sahnalarda juda bosiq, vazmin, o'ziga va o'zining haqligiga ishongan inson sifatida namoyon bo'ladi. Uning xalqchil she'rlari, el – yurt dardida yonib aytgan gaplari ijodkorning sadoqati va vatanga bo'lgan muhabbatidan darak beradi. Asar davomida uning tabiatiga xos yangi qirralar ochila boshlaydi.

Aktyor Muhammadali Abduqunduzov avvalo o'zining bosiq, vazmin, o'ychan xatti-harakatlari, shuningdek, shoir qalbidan otilib chiqayotgan misralarning jo'shqinligi bilan qahramonning murakkab xarakterini ochib beradi. Aktyor ijrosida shoir obrazini yaratishda odatda uchraydigan yasama muloyimlik yoki ko'tarinkilik sezilmaydi, she'riy misralar qahramonning ichki dardi, iztiroblari ifodasi bo'lib chiqqan.

Cho'lpon rafiqasi Soliha bilan suhbatlashadigan sahnalarida ham uning mehrini, sevgi-muhabbatini, sadoqatini, umr yo'ldoshini tuzum iskanjasidan saqlab qolish, himoya qilish uchun yolg'on gapirishi, bularning barchasi, uning qanday vafodor insonligidan, haqiqiy insoniy fazilatlar egasi ekanligidan dalolat beradi [4, 35].

Xullas, ushbu spektakllar o'zgarishlar davrining oxirgi yillari yuzaga kelgan bo'lsa-da, ularda mustaqillik uchun kurash olib borilayotgan ulug' davr muhiti, ijtimoiy faol xalq ommasi, ilg'or intelgensiya, ayniqsa O'zbekiston hukumatining milliy qadriyatlar va u orqali milliy g'ururni tiklash yo'lidagi kurashlari mohiyatiga to'la mos edi.



Oradan bir yil o'tar-o'tmas barcha O'zbekiston ahli uchun eng aziz voqea – Mustaqillik e'lon qilindi. Shu bois, ularni mantiqan mustaqillik davrining eng ulug' spektakllari edi deyishga to'liq haqlimiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 288 b.
2. Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar Ummat To'ychiyev, Mahkam Mahmud. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
3. Ikromov H. Davr va teatr. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.
4. Islomov T. Tarix va sahna. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000